# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

7
2023

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

7491
ISSN: 2992-8982

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI 1931 TDIU

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Karimov Norboy G‘aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
**Toshkulov Abduqodir Hamidovich,** i.f.d., prof., O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha maslahatchisi o‘rinbosari
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avazimbetovich,** t.f.d., prof., TDIU rektori
**Oblamuradov Narzulla Naimovich,** i.f.n., dots., O‘zR Tabiat resurslari vaziri o‘rinbosari
**Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich,** Qoraqalpog‘iston Resp. Tabiat resurslari qo‘mitasi raisi
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O‘zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Utayev Uktam Choriyevich,** O‘zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
**Ochilov Farxod,** O‘zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo‘limi boshlig‘i
**Eshov Mansur Po‘latovich,** i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo‘yicha prorektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., “O‘IRIAM” ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Maqsud Abdullayevich,** p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori
**Karimov Norboy G‘aniyevich,** i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
**Hakimov Nazar Hakimovich,** f.f.d. TDIU profesor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro “Nordik” universititi rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., “El-yurt umidi” jamg‘armasi ijrochi direktori o‘rinbosari
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o‘qituvchisi
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti

**Ekspertlar kengashi:**
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Imomqulov To‘lqin Burxonovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti



**Jurnalning ilmiyligi:**

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

# MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan ....................6
**Raekwon Chung**, Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE

Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari....................8
**Nodira Shotursunova,** Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

"Yashil iqtisodiyot"dan "yashil taraqqiyot" sari....................12
**Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich,** t.f.n., dotsent

Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari....................16
**Egamov Zoxid Baxtiyarovich,** bosh mutaxassisi

Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development:
Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development....................26
**Muratova Muzayana,** Teacher

Анализ состояния применения механизма инновационного управления
инфраструктурами нефтегазовых предприятиях в условиях глобальной потепление земли....................34
**Кучаров Аброр Сабиржанович,** профессор; **Динара Нурмамад кизи Ишманова,** доцент; **Тю Константин Геннадьевич,** соискатель

Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills

of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy....................39
**Nargiza Samandarova Muxammadovna,** Teacher

The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy....................47
**Ikromov Sayidolim,** Teacher

O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari....................54
**Rasulova Nigora Yusupovna,** kafedra assistenti

Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmning ahamiyati....................58
**Jontemirova Iroda Ikrom qizi,** talaba

Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot"ning o'rni....................61
**Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna,** talaba

O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati....................64
**Raxmanov M. A.,** tayanch doktorant

Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education....................68
**Tukhtaeva Shakhnoza,** Teacher

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xusisiyatlari....................75
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** kafedra dotsenti; **Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli,** tayanch doktoranti

Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash....................79
**Berkinov Bozorboy,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor; **Qulmatova Sayyora Safarovna,** PhD; **Ruxsatova Rushana O'ktamovna**, erkin tadqiqotchisi

O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari....................86
**Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich,** mustaqil izlanuvchi

O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari....................97
**G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich,** i. f. d., professor; **Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich,** i. f. f. d. (PhD)

Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....................102
**Raxmanov Mexridin Sindarovich,** kafedra dotsent v. b.

Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi....................106
**Ortiqov Uyg'un Davlatovich,** kafedra dotsenti, i.f.n.

Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания....................115
**Марданова Барно Асатуллоевна,** докторант

Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan....................119
**Aziz Zikriyoev,** PhD

Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya
va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi....................129
**Kambarova Sh. M.** i.f.b.f.d. PhD

Xalqaro dividend siyosati tajribalarida “S&P 500 dividend aristocrats” amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo‘llash imkoniyatlari ......134
**Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna,** dotsent

Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo‘llari ......139
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; **Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna,** talaba

Byudjyetdan tashqari mablag‘lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli ......147
**Norov Akbar Ruzimamatovich**

O‘zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlari tahlili ......151
**Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich,** i.f.f.d.(PhD)

Aholining tadbirkorlik faolligini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli ......158
**Xudayarova Maftuna Shavkatovna,** tayanch doktorant

Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi ......164
**Karimova Shirin Zoxid qizi,** tayanch doktorant

Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta’minlash ......168
**Shakirova Nigora Axralovna,** kafedra dotsenti v.b.

Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida ......172
**Raximbayev Akmal Azatboyevich,** mustaqil tadqiqotchi

Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management......177
**Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna,** PhD

Obligatsiyalar bozorining paydo bo‘lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati ......182
**Xushvaqov Islombek Muxammadi o‘g‘li,** tayanch doktorant

Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati......186
**Abduturopov Jasurbek Nozimjonovich,** mustaqil izlanuvchi

Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo‘llari......195
**Tojiyev Sardor Dilmurod o‘g‘li**

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida sug‘urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi......199
**Abduturapova Dildora Farxodjon qizi,** tayanch doktorant

Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili ......205
**Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich,** 3 st year doctoral student

Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma’muriyatchiligi faoliyati tahlili......210
**Tashmuxamedova Yayra,** tadqiqotchi

Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance......213
**Rakhimova Gulnoza,** Teacher

Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия)......218
**Искендир Аккуралай Абдиуалиевна,** докторант

Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri ......222
**Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna,** kafedra dotsenti; **Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi**

Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны ......228
**Суюнова Фотима Баходир кизи,** базовый докторант

Таргетирование инфляции в Узбекистане: предпосылки применения и первые итоги ......233
**Рашидов Рахимжон Искандарович,** в.и.о доцента; **Якубова Шамшинур Шухратовна,** к.э.н., доцент, докторант (DSc)

O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta’minlashda sug‘urtaning o‘rni ......240
**Nomozova Qumri Isoyevna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari......248
**Nazarov Qilich Xolmuradovich,** kafedra assistenti

Bank moliyaviy xavfsizligini ta’minlashda huquqiy mexanizmlarning o‘rni......255
**Akbarov Behzodhon Ulug‘bek o‘g‘li,** mustaqil tadqiqotchi

Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari......262
**Do‘sanov Doniyor,** magistr

Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar ....269
**N. N. Ro'ziyev**

Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan....277
**Sattorova Nasiba G'anijon qizi,** Teacher

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati....284
**Murodova Dilnoza Choriyevna,** PhD

Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish ....288
**Gadoyev So'hrob Jumakulovich,** mustaqil tadqiqotchi

Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari....295
**M. A. Saparova,** talaba

Приоритетные направления модернизации системы подготовки туристских кадров....299
**Очилова Хилола Фармоновна,** к.э.н., доцент

Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development ....304
**Vafoyeva Dilafruz,** Teacher

O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari ....311
**Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li,** katta o'qituvchisi, PhD

O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili ....316
**Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna,** tayanch doktorant

O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategyalaridan foydalanish yo'llari ....323
**Xalilova Nafisa Komilovna,** magistrant

Ko'zi ojiz shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba ....327
**Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li,** tayanch doktarant

Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров....334
**Джурабаев Отабек Джурабаевич,** доцент кафедры

Необходимость управления активами и пассивами современными банками Узбекистана....341
**Фаттахова Муниса Абдухамитовна**

Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri ....349
**Jumabayeve Akmole Sheraliyevich,** magistrant

Цифровая валюта: возможные последствия вывода из обращения наличных денег ....354
**Бахромов Мирзаахмад Рустам угли,** студент; **Абдикаримова Динара Рустамхановна,** научный руководитель, д. э. н. (DSc)

Systematic mapping study of higher education in green development context....361
**Asqarova Feruza Abdullaevna,** Senior Teacher
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari....368
**Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li,** kafedra o'qituvchisi; **Shaymanova Nigora Yusupovna,** tayanch doktoranti

Особенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации....373
**Д. К. Исмагилов,** кандидат педагогических наук, доцент

Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development....377
**Shodmonkulova Shahlo,** PhD student

Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi ....384
**Mamatov Sardor Axmatjonovich,** mustaqil tadqiqotchi

Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari....390
**Voxidov Oybek Rozikovich,** mustaqil tadqiqotchisi

Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy ....398
**Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli,** Teacher

Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari ....406
**Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna**, mustaqil izlanuvchi (PhD)

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS



# OBLIGATSIYALAR BOZORINING PAYDO BO'LISHI VA UNING IQTISODIYOTGA KAPITAL JALB QILISHDAGI AHAMIYATI

**Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li**
Toshkent moliya instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada qimmatli qog'ozlar bozorining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi, xususan, obligatsiyalar bozori va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati o'rganilgan. Mavzuga doir xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning tadqiqot ishlari o'rganilgan hamda obligatsiyalar bozorining turli davrlardagi shakllanish bosqichlari va bozor holati tahlil qilingan. Shuningdek obligatsiyalar orqali kapital jalb qilishning afzalliklari to'g'risida xulosalar, taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Qimmatli qog'ozlar bozori, fond birjasi, kapital bozori, obligatsiyalar, davlat obligatsiyalari, korporativ obligatsiyalar, yevroobligatsiya, foiz stavkasi, kupon stavka, likvidlilik.

## ВОЗНИКНОВЕНИЕ РЫНКА ОБЛИГАЦИЙ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ПРИВЛЕЧЕНИИ КАПИТАЛА В ЭКОНОМИКУ

Аннотация: В данной статье рассматривается история возникновения и развития фондового рынка, в частности рынка облигаций и его значение в привлечении капитала в экономику. Были изучены исследовательские работы зарубежных и отечественных экономистов по данной теме и проанализированы этапы формирования рынка облигаций в разные периоды и конъюнктура рынка. Также даны выводы, предложения и практические рекомендации о преимуществах привлечения капитала через облигации.

Ключевые слова: Фондовый рынок, фондовая биржа, рынок капитала, облигации, государственные облигации, корпоративные облигации, еврооблигации, процентная ставка, купонная ставка, ликвидность.

## THE EMERGENCE OF THE BOND MARKET AND ITS IMPORTANCE IN ATTRACTING CAPITAL TO THE ECONOMY

Abstract: This article examines the history of the emergence and development of the stock market, in particular, the bond market and its importance in attracting capital to the economy. The research works of foreign and domestic economists on the topic were studied and the stages of formation of the bond market in different periods and the market situation were analyzed. Conclusions, proposals and practical recommendations are also given on the advantages of capital attraction through bonds.

Key words: Stock market, stock exchange, capital market, bonds, government bonds, corporate bonds, Eurobond, interest rate, coupon rate, liquidity.

## KIRISH

Obligatsiyalar bozori qimmatli qog'ozlar bozorining tarkibiy qismi hisoblanib jahon amaliyotiga nisbatan yangi yo'nalish sifatida kirib kelgan. Bilamizki, banklar qarz kapitalini jalb qilishda uzoq yillar davomida iqtisodiyotning asosiy ustuni hisoblangan. Obligatsiyalar bozori esa bu jarayonning davomchisi va raqobatchisi sifatida butunjahon iqtisodiyotiga kirib keldi.

"Obligatsiya (lotincha obligatio so'zidan, majburiyat) – bu uning egasiga qarz berganligidan guvohlik beruvchi va unga ushbu qimmatli qog'ozning nominal qiymatini unda ko'rsatilgan muddatda belgilangan (qat'iy) foiz to'langan holda qoplash majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir"[1]. Yuqoridagi ta'rifdan kelib chiqqan holda obligatsiyalar bozorini qisqacha qarz bozori deyish ham mumkin. Lekin bu qarz bank kreditidan farqli ravishda o'ziga xos qulayliklar asosidagi shartlar va majburiyatlarni o'z ichiga oladi. Bozorda taklif etilayotgan obligatsiyalarning emitenti xususiyatiga ko'ra obligatsiyalar quyidagi uchta katta guruhga bo'linadi: davlat obligatsiyalari, munitsipal obligatsiyalar va korporativ (korxonalar) obligatsiyalar. Bundan tashqari "Qimmatli qog'ozlar bozorining jahon tajribasida obligatsiyalarning quyidagi turlari keng tarqalgan:

1 Butikov I. L. Qimmatli qog'ozlar bozori. Darslik. – T. : Konsauditinform, 2001. – B 26.

- uzoq muddatli, o‘rta muddatli va qisqa muddatli;
- egasining nomi yozilgan va ko‘rsatuvchi egalik qiladigan;
- yutuqli (daromad faqat obligatsiya raqami yutuqqa tushgan holdagina to‘lanadi);
- foizsiz (maqsadli) – narxi tovarlar bilan qoplanadi;
- erkin muomalada bo‘ladigan;
- muomala doirasi chegaralangan (masalan, korxona doirasida);
- ichki va tashqi qarzlar (davlat obligatsiyalari);
- garovga ega bo‘lgan (aksiya, asbob-uskunalar va h.k. ko‘rinishida) va garovsiz (emitentning pok nomi bilan);
- kuponli va kuponsiz;
- chaqirib olinadigan va chaqirish huquqisiz;
- kafolatlangan (to‘lash yoki so‘ndirish uchun uchinchi shaxs tomonidan kafolatlanadi);
- ayriboshlanadigan (aksiyalarga almashtirilishi mumkin);
- ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan (kompaniya foydasining bir qismini olish huquqini beradi);
- daromadli (foiz faqat kompaniyada foyda bo‘lsa to‘lanadi);
- tashlandiq (past sifatli obligatsiyalar);
- zakalatli obligatsiyalar, ko‘chmas mulk zakalatlari ularning ta’minoti bo‘lib xizmat qiladi”[2].

Moliya bozorida obligatsiyalar turlari diversifikatsiyasi bozor imkoniyatlarini kengaytirgan holda bozor kapitalizatsiyasining oshishiga yordam beradi. Moliya bozori yuqori darajada rivojlangan davlatlarda fond birjasi kapitalizatsiyasining mamlakat YaIM dagi ulushi juda ham yuqori bo‘lib, bu ikki ko‘rsatkich o‘rtasidagi nisbat “ Nyu-York va Tokio fond birjalarida 70–90 foizni, Korea va London fond birjasida 100–120 foizni, Gonkong fond birjasida 1000–1200 foiz[3] ekanligi fikrimizning asosli ekanligidan dalolat beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qimmatli qog‘ozlar bozorining paydo bo‘lishi, xususan, obligatsiyalar bozorining paydo bo‘lishi va uning iqtisodiyotdagi ahamiyatlilgi bo‘yicha ko‘plab xorijiy iqtisodchi olimlar o‘z iqtisodiy qarashlarini, fikr va mulohazalarini bildirib o‘tishgan. Tarixiy manbalardan ma’lumki, dunyodagi eng birinchi banklarning paydo bo‘lishi eramizdan avvalgi VII asrda Bobilda, so‘ngra qadimgi Gretsiyada va qadimgi Rimda paydo bo‘lganligiga qaramasdan “bank” atamasining ishlatila boshlanishi o‘rta asrlarda Italiyaga borib taqaladi. Ya’ni shu davrda Italiyada moliya institutlari tuzilmalari rivojlanishni boshladi. Xususan, XII asrdan boshlab gollandlarga tegishli bo‘lgan kompaniyalarning aksiyalari Italiyaning qimmatli qog‘ozlar bozorida tarqala boshlagan. Ya’ni bu davrga kelib, Italiyada xalqaro qimmatli qog‘ozlar bozori paydo bo‘lgan. Ammo qimatli qog‘ozlar bozori tarixi bundanda uzoqroq o‘tmishga borib taqaladi. Xususan, rossiyalik iqtisodchi olim S. Z. Moshenskiy “Italiyalik savdogarlar vekseldan keng foydalanishni boshlagan vaqtlarda, shunga o‘xshagan qarz majburiyatlari Arab davlatlarida keng qo‘llanayotgan vaqtlardan ham oldinroq bu kabi qimmatli qog‘ozlar Xitoyda Tan sulolasi davrida VII-X asrlarda paydo bo‘lgan”ligini[4] o‘z asarlarida keltirib o‘tgan. Aynan shu davrlarda pulning qog‘oz shakli iqtisodiyotda muhim o‘rin egallab Xitoyda kredit-qarz munosabatlari rivojlana boshlagan. S. Z. Moshenskiy aynan obligatsiya to‘g‘risida ham muhim ma’lumotlarni keltrib o‘tgan. “Davlat obligatsiyalariga o‘xshash xususiyatga ega bo‘lgan birinchi moliyaviy instrumentlar Xitoyda Sun sulolasi davrida XII asrda ishlatila boshlangan, ayni shu davrda Venetsiya va Italiyaning boshqa shaharlarida ham undan foydalanishgan”[5]. Demak, qimmatli qog‘ozlar birinchilardan bo‘lib Xitoyda VII-X asrlarda ishlatila boshlangan bo‘lsa, qimmatli qog‘ozlar bozorining shakllanishi ham shu davrda boshlanganligidan darak beradi.

Ba’zi iqtisodchi olimlar qimmatli qog‘ozlar bozori tushunchasi va fond bozori tushunchasi paydo bo‘lish davri jihatdan turlicha ekanliklari to‘g‘risida fikrlar bildirib o‘tishgan. Xususan A. T. Alikulov ilmiy izlanishlari davomida “tarixda qimmatli qog‘ozlar bozorining paydo bo‘lishini o‘rganishimiz davomida fond bozori (stock market) tushunchasidan uzoq o‘tmishda foydalanilmaganligini”[6] aytib o‘tgan.

---

2 Butikov I. L. Qimmatli qog‘ozlar bozori. Darslik. – T. : Konsauditinform, 2001. – B 36–37.
3 F. T. Muxammedov Qimmatli qog‘ozlar bozori: rivojlanish odimlari va muammolari. Xalqaro moliya va hisob elektron jurnali № 3-iyun 2017-yil. 5-b.
4 С.З.Мошенский. Рынок ценных бумаг: трансформационные процессы/ – Москва: <Экономика>, 2010. 239 с.
5 С.З.Мошенский. Рынок ценных бумаг: трансформационные процессы/ – Москва: <Экономика>, 2010. 239 с.
6 A. T. Alikulov Fond bozori orqali kapital oqimini oshirish: nazariya, amaliyot va istiqbollar. Monografiya. Qarshi. “Intellekt” nashriyoti, 2020. – 126 bet

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Fond bozorining paydo bo'lishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u birinchi-marta birjaning paydo bo'lishi bilan bog'liq. "1531-yilda belgiyaning Anverpen shahrida dunyodagi birinchi birja tashkil etildi"[7] va 1592-yilga kelib, birinchi-marta ushbu birjada savdoda bo'lgan qimmatli qog'ozlar narxlarining ro'yxati shakllantirildi va shu yil fond birjasi qimmatli qog'ozlarni ayriboshlaydigan birinchi maxsus tashkiliy tuzilma ko'rinishida paydo bo'ldi.

Mamlakatimizda esa obligatsiyalar bozori uzoq tarixga ega emas. Birinchi marotaba O'zbekistonda mustaqillik yillaridan so'ng 1992-yil may oyida 12 foizli ichki yutuqli davlat obligatsiyalari chiqarildi. Inflyatsiya oqibatida bu obligatsiyalar uning egalari (aholi) uchun muvaffaqiyatsiz bo'ldi. Obligatsiyalar chiqarilishining keyingi bosqichi 1996-yil mart oyiga to'g'ri keldi. Bu obligatsiyalar davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO) ko'rinishidagi obligatsiya zayomi bo'lib yuridik shaxslar uchun chiqarildi. O'zbekistonda korporativ obligatsiyalar esa 1999-yildan boshlab chiqarila boshlangan va fond bozorida savdo qilina boshlangan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotga obligatsiyalar orqali kapital jalb qilish amaliyoti to'g'ri va samarali ekanligi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ko'rinib turibdi. Mamlakatimizda ham bu yo'nalish bo'yicha bir qancha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

1-jadval: MDH davlatlari yevroobligatsiyalarini muomalaga chiqarishi[8]

| Davlatlar | Yevroobligatsiyaning hajmi (mlrd. dollar) | Joylashtirish vaqti | Daromadlilik stavkasining joriy darajasi (%) | Joylashtirish vaqtidagi xalqaro kredit reytingi | Joylashtirishda investorlarning tarkibi (%) | Talabning emmisiya hajmiga nisbati |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Rossiya | 54,052 | 1996-yil oktyabr | 3,11–4,95 | Standart & Poors - "BB-", Moody's -"Ba2", Fitch-"BB+" | AQSH – 41, Jan. Koreya – 39, Yevropa – 20 | 2,1 |
| Qozog'iston | 6,5 | 1996-yil dekabr | 3,85–5,175 | Standart & Poors -"BB", Moody's-"BA3" | Buyuk Britaniya – 63, AQSH – 21, Yevropa – 16 | 4,4 |
| Gruziya | 0,5 | 2008-yil aprel | 6,88 | Standart & Poors -"B+", Fitch – "B+" | Buyuk Britaniya – 56, AQSH – 13, Yevropa – 31 | 3,4 |
| Belorusiya | 8,78 | 2010-yil iyul | 4,5–8,0 | Moody's – "B1" | AQSH – 67, Buyuk Britaniya – 24, Yevropa – 9 | 1,8 |
| Armaniston | 1,2 | 2013-yil sentyabr | 6,0–7,15 | Moody's – "BA2" | AQSH – 42, Buyuk Britaniya – 23, Yevropa – 17, RF va Osiyo – 18 | 4,3 |
| Azarbayjon | 3,5 | 2014-yil mart | 3,5–4,75 | Standart & Poors -"BBV – /A–3" | AQSH – 47, Buyuk Britaniya – 25, Germaniya – 18, Singapur va Isroil – 10 | 4 |
| Tojikiston | 6,5 | 2017-yil sentyabr | 7,125 | Standart & Poors-"B3" | AQSH – 38, Buyuk Britaniya – 24, Yevropa – 35, Osiyo – 3 | 9 |
| O'zbekiston | 1,0 | 2019-yil fevral | 4,75–5,375 | Standart & Poors-"BB-", Moody's – "B1", Fitch -"BB-", | Buyuk Britaniya – 39, AQSH – 23, Yevropa – 32, Osiyo–6 | 8,5 |

7 Sebastien Donadio, Sourav Ghosh-Learn algorithmic trading Build and deploy algorithmic trading systems and strategies using Python and advanced data analysis, UK, 2019, p–365.
8 Еврободы: за и против-repost.uz, 14.06.2019- https://repost.uz/bond-eurobond.

Yuqoridagi jadval ma’lumotlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, O‘zbekiston jahon obligatsiyalar bozoriga 2019-yilda London fond bijasida xalqaro yevrobondlarni joylashtirish orqali kirib keldi va mamlakatimiz moliya bozorining rivojlanishida yangi davr boshlandi. Yevroobligatsiyalarni jahon fond bozoriga joylashtirishdan asosiy maqsadlardan biri bu O‘zbekistonning dunyo moliya bozorida o‘z o‘rnini egallash va nufuzli xalqaro reytinglardan joy olishdir. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish maqsadida Prezidentimizning 2019-yil 2-apreldagi PQ 4258-sonli “O‘zbekiston Respublikasining ilk suveraen xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag‘lardan samarali foydalanish to‘g‘risida”gi Qarori bilan yevrobondlar orqali jalb qilingan mablag‘lar quyidagicha taqsimlandi: 889,2 mln AQSH dollari auksion savdolari o‘tkazish orqali tijorat banklari depozitlariga joylashtirildi; 20 mln AQSH dollari “Agrobank” ATB ga qarz ko‘rinishida berildi; 89,9 mln AQSH dollari “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” davlat korxonasiga ssuda sifatida ajratildi. Bu mablag‘larning maqsadli va samarali sarflanishi albatta mamlakat Yalpi ichki mahsulotining o‘sishida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Xalqaro obligatsiyalar orqali iqtisodiyotga kapital jalb qilish bo‘yicha O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchilardan bo‘lib 2020-yil noyabr oyida o‘z milliy valyutasida 2 trln so‘m miqdoridagi yevroobligatsiyalarni London fond birjasida 14,5 foiz daromadlilik bilan 3 yilga joylashtirgan. Bu kabi say harakatlar nafaqat milliy iqtisodiyotda kapital hajmining oshishiga balki milliy valyuta barqarorligini ta’minlashga ham o‘z hissasini qo‘shadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Obligatsiyalar bozorining paydo bo‘lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati to‘g‘risida quyidagi xulosa va takliflarni shakllantirdik.

Obligatsiyalar bozori erkin raqobat va tanlov asosida moliyaviy resurs jalb qilishning eng optimal yo‘l hisoblanadi. Chunki bunda emitent va investorlarning talab va takliflari obligatsiyalar narxi va ularga taklif etilayotgan daromadlilikka bevosita bog‘liq va bu miqdorlar ochiq holda o‘zgartirilishi mumkin.

Kapital bozorining bir qismi sifatida obligatsiyalar bozorining paydo bo‘lishi kredit bozorida kredit narxlarining pasayishi va kredit shartlarining yegillashishiga olib kelmoqda. Bu esa kapital bozoridagi raqobat muhitining yaxshilanayotganligidan dalolat beradi.

Obligatsiyalar bozorini rivojlantirish ko‘p jihatdan emitent va investorga ham foydali hisoblanadi. Shuning uchun ichki bozor uchun likvidliligi yuqori bo‘lgan yevroobligatsiyalarni chiqarish bo‘sh turgan pul mablag‘larini harakatga keltirish uchun turtki bo‘lar edi. Bu jarayon jismoniy va yuridik shaxslarning bo‘sh turgan pul mablag‘larini iqtisodiyotga jalb etishga yordam beradi.

Shuningdek moliya bozorida qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va ularning nazorati bilan bog‘liq masalalar emitent ichki nazorat organlariga topshirilishi ham maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu esa mulkchilik shaklidan qat’iy nazar korxona va tashkilotlarga o‘z qimmatli qog‘ozlarini chiqarishga zamin yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. С.З.Мошенский. Рынок ценных бумаг: трансформационные процессы/ – Москва: “Экономика”, 2010. 239 с.
2. Sebastien Donadio, Sourav Ghosh-Learn algorithmic trading Build and deploy algorithmic trading systems and strategies using Python and advanced data analysis, UK, 2019, p–365.
3. Frederic S. Mishkin, Stanley G. Eakins. Financial markets and institutions. – Pearson, 2015. – P. 308–332.
4. Butikov I. L. Qimmatli qog‘ozlar bozori. Darslik. – T. : Konsauditinform, 2001. – B 496.
5. Oskar Kowalewski, Pawel Pisany. What drove the growth of the corporate bond markets in Asia? Researchin International Businessand Finance. Volume 48, April 2019, Pages 365–380
6. A. T. Alikulov Fond bozori orqali kapital oqimini oshirish: nazariya, amaliyot va istiqbollar. Monografiya. Qarshi. “Intellekt” nashriyoti, 2020. – 126 bet.
7. https://uzse.uz
8. http://www.lex.uz-O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi huquqiy axborot bilan ta’minlash markazi rasmiy sayti.
9. https://repost.uz/bond-eurobond

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 7**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL:  30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi 26-uy.